

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODELI: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

HISTORY OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN SHAHRUKH MIRZO AND THE OTTOMAN EMPIRE

Ne'matov Khumoyun To'lqin o'glu

Oriental University Samarkand Campus
1st year master's student in history

Abstract. This article examines the history of diplomatic relations between the ruler of the Timurid state, Shahrukh Mirza, and the Ottoman state. The article analyzes the diplomatic relations, correspondence, and political compromises between the two states. It is illustrated by the fact that Shahrukh Mirza's Western policy was aimed at maintaining peace and stability rather than military expansion, based on scientific literature and scientific articles.

Keywords: Timurids, Ottomans, diplomatic relations, Shahrukh Mirza, Mahmud Chalabi, letter, embassy, Murad II, Black Sheep.

SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI

Ne'matov Xumoyun To'lqin o'g'li

Oriental Universiteti Samarqand kampusi
tarix 1-kurs magistranti
E-mail: hnematov264@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davlati hukmdori Shohruh Mirzo va Usmoniylar davlati o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi yoritiladi. Maqolada ikki davlat o'rtasida olib borilgan elchilik munosabatlari, yozishmalar va siyosiy murosasi tahlil qilinadi. Shohruh Mirzoning g'arbiy siyosati harbiy ekspansiyadan ko'ra tinchlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgani ilmiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar, Usmoniylar, diplomatik aloqalar, Shohruh Mirzo, Mahmud Chalabiy, maktub, elchilik, Murod II, Qora qo'yunlilar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N04>

Kirish. Amir Temur davrida Movarounnahr va Usmoniylar davlati o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda tomonlarning siyosiy yondashuvlarida muayyan farqlar kuzatiladi. Xususan, Amir Temur tashqi siyosatda vazmin va ehtiyotkor diplomatik yo'l tutgan bo'lsa, Usmoniylar davlati hukmdori Boyazid Yildirimning siyosiy faoliyatida keskinlik unsurlari yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq keyingi davrlarda, har ikki davlat hukmdorlari avlodlari zamonida, o'zaro munosabatlarda harbiy qarama-qarshilikdan ko'ra diplomatik aloqalarning ustuvor ahamiyat kasb etganini kuzatish mumkin.

Tadqiqotning maqsadi Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar va Usmoniylar davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalarning mazmuni, shakllari va siyosiy ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, Temuriylar va Usmoniylar o'rtasidagi munosabatlar tarixshunoslikda asosan Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasidagi

Anqara jangi doirasida talqin qilinib kelinadi. Shohrux Mirzo hukmronligi davridagi diplomatik aloqalar esa yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirish, XV asrning birinchi yarmida mintaqaviy siyosiy barqarorlikni ta'minlashda diplomatiyaning o'rnini ochib berish bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili. Temuriylar va Usmoniylar davlati hukmdorlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi bo'yicha dunyoda va yurtimizda yetakchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu ilmiy izlanishlarda Shohruh Mirzo va Usmoniylar hukmdorlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Fransuz turkologi Jan-Pol Ru o'z asarida, Yangi hukmdor Shohrux Mirzo tinchlikka yo'naltirilgan siyosat olib boruvchi hukmdor edi, faqat boshqa bir chora qolmaganida chegaralarini himoya qilish va qarindoshlari orasidagi harbiy to'qnashuvlarga chek qo'yish uchun urishar edi [1, S. 334]. deb ta'kidlaydi.

Shohrux Mirzoning Oq Qo'yunlilar va Usmoniylar davlatiga qarshi yurish olib bora olmaganligi, usmoniylarning esa temuriylarni dushman sifatida ko'rmaganligi sabablarini Turkiyalik Professor Yusuf Çetindağ quyidagicha ifodalaydi. Shohrux Mirzo Temurdan keyin g'arb tomonga uch marotaba yirik yurishlar uyushtirdi. Bu yurishlar asosan Qora qo'yunli hukmdorlarining itoatsizligi sababli amalga oshirilgan edi. Ushbu yurishlar davomida Shohrux Mirzo na Oq Qo'yunlilar, na Usmoniylar bilan urush olib bordi. Chunki har ikkala davlat ham o'zlarini Shohrux Mirzoning noibi sifatida tan olishgan edi.

Aslida, Usmoniylarning sharqdagi Temuriylar hukmdorligiga dushman bo'lganini qat'iy tarzda ta'kidlash mushkuldir. Garchi Amir Temur bilan Yildirim Boyazid o'rtasida bo'lib o'tgan yirik jangdan keyin ayrim kichik ziddiyatlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, Usmoniylarning sharqni zabt etish siyosiy maqsadi mavjud bo'lmagani sababli, ularning temuriylarni dushman sifatida ko'rgan deyish mumkin emas. Usmoniylar o'zlariga aniq va ochiq xavf tug'ilmagunga qadar, Sharqdagi musulmon turk davlatlari bilan to'qnashuvlardan qochishga intilganlar. Aksincha, Usmoniy hukmdorlari sharqdagi ushbu davlatlarga nisbatan iliq munosabatda bo'lganlar [2, S.17-18].

Temuriylar davlatidagi tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi tizim haqida O'zbek akademigi Muzaffar Muhitdinovich Xayrullayev o'z fikrlarini keltiradi. Tarixiy asarlarda uchraydigan temuriy shahzodalar saroyidan xorijiy mamlakatlarga ketgan elchilar, xorijiy elchilarni temuriylar saroyida qabul marosimlari, xorij hukmdorlari bilan yozishmalar, qisqasi, temuriylar xorijiy munosabatlariga doir ko'plab ma'lumotlar borki, ularni ko'zdan kechirar ekanmiz, temuriylar saroyida tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi butun bir tizim ishlab turganini ko'rish mumkin. Xorijiy davlatga boradigan elchilikni tashkil etish, xorijdan keladigan elchilarni kutib olish, qabul marosimlarini tashkil etish, elchilarga xizmat ko'rsatish kabi har bir masalaning o'z mutasaddisi temuriylar saroyida tayin qilingan.

Temuriylar tashqi munosabatlarida ko'zga tashlanadigan yana bir qirra shuki, ularning xorij hukmdorlari bilan yozishmalarida yoki elchilarning hukmdorlar bilan muloqotlarida, albatta, savdo aloqalarini yo'lga qo'yish yoki mustahkamlash va savdogarlar xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar ko'tarilganligini ko'ramiz. Bu esa temuriy hukmdorlarning savdo-iqtisodiy aloqalarga naqadar jiddiy e'tibor berganligidan dalolat beradi [3, B.103].

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslanildi. Asosiy metodlar sifatida tarixiy-taqqoslash, manbashunoslik tahlili hamda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Shohrux Mirzo va Usmoniylar sultonlari o'rtasidagi yozishmalar, fathnomalar va elchilik ma'lumotlari birlamchi manbalar sifatida o'rganildi. Shuningdek,

zamonaviy tarixchilarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, mualliflarning o'zaro qarashlari solishtirildi.

Tahlil va natijalar. Temur vafotidan so'ng uning o'g'li Shohrux Mirzo dastlab ichki kurashlar bilan mashg'ul bo'lib, bir muddat g'arb masalalarini e'tibordan chetda qoldirdi. Aynan shu davrda Qora qo'yunlilar hukmdori Qora Yusuf hamda Usmoniylar davlati boshida turgan Mahmud Chalabiy o'z davlatlarini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldilar. Shohrux g'arbda otasi Temur tomonidan o'z vaqtida o'rnatilgan tartibni qayta tiklashni istar edi. Shu sababli u Temurning oliy hokimiyatini tan olgan Mahmud Chalabiyning Onadoluda yana siyosiy birlikni ta'minlashini o'z manfaatlari nuqtai nazaridan ma'qul deb hisoblamadi. Darhaqiqat, 1416-yilda u amirlaridan Burundiq Bahodir orqali yuborgan maktubida usmoniylarning o'z aka-ukalarini qatl qildirilishini qoralagan edi. Usmoniylar hukmdori esa javob maktubida aytilgan gaplarning to'g'riligini tan olib, biroq hokimiyat sheriklikni qabul qilmasligini, sheriklik esa doimo dushmanlarga imkon va jur'at berishini [2, S.16]. Shu sababli ajdodlari tomonidan fath etilgan Salonika viloyati va boshqa bir qancha hududlar qo'ldan chiqib ketganini ta'kidlagan[4, S.254]. Ushbu jumalarda Mahmud Chalabiyning keskin so'zlersiz Shohrux Mirzoning so'zlarini to'g'riligini ta'kidlagani hamda o'z aka-ukalarini qatl qildirilish sabablarini tushuntirib o'tganligi bilan Usmoniylar hukmdorining Shohrux Mirzoga nisbatan ehtiyotkor va itoatkor siyosiy munosabatini o'zida aks ettiradi.

Temuriy shahzodalarning Usmoniylar, Oq qo'yunlilar bilan yozishmalarining ko'pchiligida Qora Yusufning nomi o'rta qo'yilgan chiqaveradi. Shohrux Mirzo Usmoniylar sultoni Mahmud Chalabiy (1402-1421)ga noma yo'llagan. Bu nomda Shohrux, agar Qora Yusuf usmoniylar mamlakatida ko'ringudek bo'lsa, uni temuriylar saroyiga jo'natib yuborishlarini iltimos qiladi. Bu maktubga usmoniylar sultoni mufassal bir javob qaytarar ekan, Qora Yusuf uchun usmoniylar mamlakatiga boradigan yo'llarni berkitishi yoki uzrxohlik yuzasidan uni (Qora Yusufni) temuriylar saroyiga yuborishga harakat qilajagini ma'lum qiladi[3, B.100]. Bu holat Mahmud Chalabiyning otasi Boyazid Yildirim davridagi diplomatik xatolardan saboq olganini ko'rsatadi.

Bu yillarda Oqqo'yunlilar hukmdori Qora Yuluk tomonidan Shohrux Mirzoga yuborilgan, biroq manziliga yetmasdan Qora Yusuf qo'lga tushib qolgan bir maktubda, avvalo Oq qo'yunlilar, shuningdek Onadolu beklari, Vizantiya va Trabzon takfurlari, gruzin maliklari, Shirvon, Gilon va Luriston beklari Shohrux Mirzoni kutayotganlari bayon etilgan edi. Ushbu maktub sababli xavotirga tushgan Qora Yusuf Usmoniylar sultoni Mahmud Chalabiya yozgan maktubida Shohrux Mirzo Bo'g'ozlargacha bo'lgan hududlarni istilo etib, Bolqondan Dashti Qipchoqqacha, Darbanddan Ozarbayjonga yurish qilish niyatida ekanini bildirgan. Mahmud Chalabiy esa bu maktubga nisbatan sukut saqladi va har safar Shohruxga bo'lgan itoatini takrorlab keldi. Hatto Shohrux Mirzoga yo'llagan bir maktubida Karaman o'g'liga qarshi qilgan yurishini o'zini himoya qilish sifatida qabul qilish lozimligini ta'kidlagan edi. Mahmud Chalabiyan keyin uning o'g'li Murod II ham vafotiga qadar Shohrux Mirzoga bo'lgan sadoqatidan chekinmadi. O'sha davr Usmoniylar sultonlari qanday bo'lmasin, Temur davridagiga o'xshash ikkinchi bir mag'lubiyatni boshdan kechirishni istamas edilar[2, S.16]. Shu bilan bir qatorda, Qora qo'yunlilar davlati Temuriylar va Usmoniylar o'rtasida muayyan darajada siyosiy to'siq vazifasini bajargani ko'rsatiladi.

Shu vaziyatda, 1420-yil 25-avgustda Shohrux Qora Yusufga qarshi harakatga o'tdi. Shohrux Mirzoning qo'shini sharqiy Onadolugacha yetib keldi. Shohrux Mirzoga Qora

Yusufning vafot etgani haqidagi xabar yetib keldi va qoraqo'yunlilar tarqalib ketdilar. Shohrux Mirzo bu g'alabadan g'oyat mamnun bo'lib, ko'plab davlatlar hukmdorlariga fathnomalar yubordi. Bu fathnomalardan biri Usmoniylar hukmdoriga ham yo'llangan edi. Shohrux Mirzo ushbu fathnomada qoraqo'yunlilarni mag'lub etganini hamda Ozarbayjon va Tabrizni o'z hukmronligi ostiga olganini ma'lum qilgan. E'tiborlisi shundaki, bu yurish davomida Usmonlilar bilan Temuriylar o'rtasida hech qanday qurolli to'qnashuv sodir bo'lmadi[2, S.16].

Shohrux Mirzo Xuroson tomon qaytgach, Iskandar Ozarbayjonni yana qayta egallaydi. Shuningdek, Mamluklar ham Shohrux Mirzoning ittifoqchilaridan bo'lgan Oq qo'yunlilarga hujum qildilar. Natijada Shohrux Mirzo 1429-yilda ikkinchi bir harbiy yurish uyushtirishga qaror qildi. Bu yurish amalga oshirilishini eshitgan Usmoniylarning barcha dushmanlari quvonishgan edilar, chunki bu ikki davlat har qanday paytda bir-biri bilan to'qnash kelishi mumkin edi. Shohrux Mirzo Ozarbayjonga yurishni amalga oshirdi. Iskandar bo'lib o'tgan urushda yengildi. Shohrux bu g'alabasi munosabati bilan yana fathnomalar yozdirib, Usmoniylar hukmdori hamda boshqa ko'plab hukmdorlarga yubordi. Iskandarning mag'lubiyatga uchrashi bilan Shohrux Mirzo va Usmoniylar o'rtasida hech qanday to'siq qolmagan edi. Hamma Shohrux Mirzo usmoniylar yerlariga ham hujum qiladi, deb kutayotgan bir paytda, uning kutilmaganda chiqargan qarori bilan Qorabog'dan Xuroson tomonga qaytib ketishi Usmoniylar tomonidan ijobiy qabul qilindi va ikki davlat o'rtasida yana tinchlik saqlanib qoldi.

Keyingi yili Ozarbayjon yana notinchlik girdobiga tushdi va Shohrux Mirzo g'arb tomonga yangi bir yurish uyushtirdi. Qora Qo'yunlilar bilan temuriylar o'rtasida bo'lib o'tgan jangda qora qo'yunlilar og'ir mag'lubiyatga uchradilar va ularning hukmdori Iskandar Onadolu tomonga qochishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng Shohrux Mirzo Onadolu beklari nomiga maktublar yuborib, Iskandarni o'z hududlariga qabul qilmaslik haqida ogohlantirdi. Shuningdek, Murad II ga yuborgan elchisi orqali[2, S.17]. Iskandarning ko'p fitna, fasod va bosqinchilik qilganini, endi esa qochib yurganini aytirib, agar u tomonlarga o'tib qolsa, tutulib o'ziga jo'natishini istadi[5, B.77]. 1436-yilda Iskandarni qo'lga kirita olmagan Shohrux Mirzo Xorazmdan kelgan ayrim salbiy xabarlar sababli ortga qaytishga majbur bo'ldi.

Murad II Shohrux Mirzoni bezovta qiladigan har qanday harakatdan tiyilishga harakat qilgan edi. Hatto Onadoludagi Karaman O'g'illari beyligi, Dulkadir o'g'illari beyligi va Murad II Shohrux Mirzo tomonidan yuborilgan shohona to'nlarni kiyish orqali unga bo'ysunganliklarini namoyon etdilar. Natijada Shohrux Mirzo katta umidlar bilan chiqqan bu yurishlardan hech qanday aniq natija qo'lga kirita olmay qaytdi. Ozarbayjon, Sharqiy Onadolu va Iroq hududlarida hukmronlik qilgan qora qo'yunli davlati mavjudligi sababli u na Usmoniylar, na Mamluklar ustiga yurish qila oldi. Usmoniylar hukmdorlari Mahmud Chalabiy va Murad II Shohrux Mirzo bilan to'qnash kelmaslikka intilgan holda, o'z hokimiyatlari va qudratlarini mustahkamlab bordilar. Shu tariqa Shohrux Mirzoning "Bo'g'ozlargacha bo'lgan hududlarni zabt etish" g'oyasining amalga oshishi tobora qiyinlashib borardi[2, S.17].

Ma'aliy tomonidan tayyorlanib, 1474-yilda Sulton Mahmud II Fotihga taqdim etilgan "Hukumdornoma" nomli asarda Murod II ning Shohrux Mirzo xizmatida bo'lish uchun qirq nafar saralangan askarni o'z elchisi orqali ko'plab sovg'alar bilan Hirot shahriga yuborgani bayon etiladi[2, S.18]. Asarda quydagi jumlar o'rin olgan. Hindiston, Xitoy Mochin va Xo'tandan unga chinni laganlarda sovg'alar yuborilganligi qayd etiladi, elchilarning soliq va boj masalalarida imtiyoz so'rab murojaat qilganlari ham tilga olinadi. Misr sultoni ham Shohruh

Mirzo bilan doimiy diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygani. U elchilar orqali o'z hurmati va salomini izhor qilib "Sen podshohlarning podshohisan men sening qulingman" deya murojaat qilgani keltiriladi. Shuningdek, Usmoniylar sultoni Sulton Murod II Shohrux Mirzoga Venetsiyaning yuqori sifatli qalin matolari, podshohlik darajasiga munosib gilamlar, Shuningdek, zirhli qurollangan askarlar va maxsus himoya yopinchiqlari bilan himoyalangan otlarni yuborgan. Murod II o'z davrining yuqori darajali kotibiga Shohrux Mirzo uchun maktub yozdirdi. Maktubda Shohrux Mirzoning siyosiy va axloqiy fazilatlari alohida ta'kidlangan. Unda Shohrux Mirzo davlatini adolatli boshqarayotgani, shaxsiy hayotining kamtaronaligi, davlatida tinchlik va barqarorlik ta'minlanganini yuqori baholagan. Shu sababli u boshqa hukmdorlar orasida yetakchi shaxs sifatida e'tirof etilgan. Hatto Murod II Shohrux Mirzo xizmatida bo'lish uchun yuborgan saralangan askarlarga "boringlar uning libosining yengini o'pinglar" deya so'zlagani ma'lum. Elchilarning Hirotda Shohrux Mirzoning huzurida Sulton Murodning maktubida yozilgan so'zlarni o'qishi Shohrux Mirzo tomonidan ijobiy qabul qilingan. Shuningdek, Usmonli sultoni tomonidan yuborilgan maxsus tanlangan askarlar Sulton Murod II nomidan keltirilgan sovg'alarni Shohrux Mirzoning huzuriga keltirdilar va ularga o'tirish uchun 40 dona oltin bilan bezatilgan o'rindiqlar qo'ydilar, 10 dona qurollangan askarlar ustilari yopinchiqlar bilan himoyalangan otlarni ham Shohrux Mirzoning huzuriga keltirdilar[6, S.536-537]. Shohrux Mirzo Hirotda kelgan elchilar delegatsiyasini nihoyatda ehtirom bilan kutib oldi va ular sharafiga Hirotda bayramona tantanalar tashkil ettirdi[2, S.18]. Bugungi kunda Shohrux Mirzo va Murod II nomalaridan yozilgan olti maktub nusxasi hozirgacha aniqlangan va ilmiy muomalaga kiritilgan hisoblanadi[3, B.102]. Yuqorida Usmoniylar elchilarining Shohrux Mirzo huzuriga sovg'alar va xos askarlar bilan kelganligi Shohrux Mirzoning mintaqadagi siyosiy mavqeyini tan olinganidan dalolat bermoqda.

Usmoniylar sultoni Sulton Mahmud II Fotih (1444-1446)ning Shohrux Mirzo bilan makotibasining nusxasi ham saqlangan. Ushbu yozma muloqot tashabbusi Mahmud II Fotih tomonidan ko'rsatilgan edi. Maktubda Fotih o'z otasi Sulton Murodning saltanat taxtini unga topshirgani va Yevropa ittifoqchi kuchlari bilan bo'lgan muhorabalarda qozongan g'alabalari haqida yozgan. Shohrux Mirzo ushbu nomaga javoban o'z maktubida, avvalo, Fotihni sultonlik taxtiga musharraf bo'lganligi bilan tabriklab, so'ng orada savdo, elchilik aloqalarini mustahkamlash istagini bildirgan[3, B.102].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasidagi munosabatlar Anqara jangidagi harbiy to'qnashuv bilan yakunlangan bo'lsa, Shohrux Mirzo va Usmoniylar hukmdorlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar aksincha, tinchlik va murosaga asoslangan. Usmoniylar sultonlari Shohrux Mirzoni oliy hukmdor sifatida tan olib urush kelib chiqishidan qochishga intildilar. Natijada ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar XV asrda mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Roux, Jean-Paul. Türklerin Tarihi: Pasifik'ten Akdeniz'e 2000 Yıl. Çeviriler: Prof.Dr. Aykut Kazancıgil, Lale Arslan-Özcan. İstanbul: Kabalcı Yayınevi, 2004, s. 334.
2. ÇETİNDAG, Yusuf. "Siyasi Açidan Timurlu-Osmanlı İlişkileri." ASOS JOURNAL The Journal of Academic Social Science, 2016, s. 16-17-18.
3. Xayrullayev, M. M. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. Toshkent: XEFA-ПРИНТ, 2003. B. 100-102-103.
4. Aka, İsmail. Mirza Şahruh: Timur'un Hükümdar Oğlu, Uluğ Bey'in Babası (1405-1447). İstanbul: Kronik Kitap, 2022, s. 254

5. Aka, Ismoil. Buyuk Temur davlati. Tarjimon: Tohir Qahhor. Toshkent: Cho'lpon nashriyoti, 1996. B. 77.
6. Togan, Zeki Velidi. "Büyük Türk Hükümdarı Şahruh." 24.12.1948 tarihinde Eminönü Halkevi'nde verilen konferans, s. 536–537.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).